

PAPER

CHAKANA BANK XIZMATLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Boborajabova Sitora Farhod qizi¹, * and Boborajabova Sadoqat Farhod qizi²

¹Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi and ²NDKTU assistenti

*boborajabovasitora@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola, avvalo, chakana bank xizmatlari samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qanday rol o'ynayotganini tahlil qiladi. O'z ichiga har xil sun'iy intellekt usullarini, jumladan, ma' lumotlarni tahlil qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni individualizatsiya qilish va xavfsizlikni oshirish kabi yo'nalishlarni oladi. Shuningdek, maqola, sun'iy intellektni joriy etish orqali banklar qanday qilib mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishi, xizmatlar sifatini oshirish va raqobatbardosh afzalliklar qo'lga kiritishini ko'rsatib o'tadi.

Key words: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, chatbotlar, raqamli operatsiyalar, aqlli algoritmlar, firibgarlikni aniqlash, kiberxavfsizlik, kiberhujumlar, avtomatlashtirish.

Kirish

Kun sayin yangilanib borayotgan axborot texnologiyalari bank sohasini ham zamon bilan moslashuvini taqozo etadi. Ayniqsa, xalqaro miqyosda sun'iy intellekt yordamida chakana bank xizmatlarini boshqarish va shu orqali banklarning samaradorligini oshirishga erishilmoqda. Bunda mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar maqbul va sifatli bo'lishi bilan bir qatorda, xarajatlarning kamayishi va vaqtdan unumli foydalanish mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Sun'iy intellektning bank sohasidagi qo'llanilishi global miqyosda kengayib bormoqda. Turli tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt banklar tomonidan xizmat ko'rsatish sifati, xavfsizlik darajasi, mijozlarga moslashtirilgan yondashuv va tezkorlikni oshirishda muhim omil sifatida tan olinmoqda. Bharadwaj (2025) o'z tadqiqotida AQShda sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan virtual yordamchi "Erika" ning samaradorligini tahlil qilib, uning mijoz so'rovlariga tezkor javob berish, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif qilishdagi rolini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda muhim yutuqlar kuzatilmogda. Abdurashidova (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda

sun'iy intellektning bank sektorida samarali ishlatilayotgani, ayniqsa, kredit layoqatliligini baholash, firibgarlikni aniqlash va kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi yutuqlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, 2024-yil 14-oktabrda qabul qilingan 358-sonli Prezident qarorida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalishda davlat miqyosida katta e'tibor qaratilayotganini anglatadi.

Yevropa mamlakatlarida, xususan Germaniya, Avstriya va Shveysariya chatbotlar, avtomatlashtirilgan xizmatlar, prediktiv tahlil kabi vositalar yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshirilmoqda. Ushbu tendensiyalar global miqyosda sun'iy intellektning chakana bank xizmatlari samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Ushbu maqola yozilishida sifatli tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Asosiy maqsad — sun'iy intellektning chakana bank xizmatlaridagi ahamiyatini chuqur tahlil qilish, mavjud yutuqlarni aniqlash hamda global va mahalliy tajribalar asosida xulosalarga kelishdir.

Tadqiqot usullari quyidagilardan iborat:

Ikkinchi darajali ma' lumotlarni tahlil qilish. Maqola asosida ilmiy maqolalar, xalqaro va mahalliy normativ hujjatlar, prezident qarorlari, bank sektoridagi amaliyotlar, hamda veb-manbalardan olingan ma' lumotlar asosida tahlil olib borildi.

Taqqoslov usuli: O'zbekiston tajribasi Yevropa mamlakatlari, xususan AQSh, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlaridagi ilg'or tajribalar bilan taqqoslandi. Bu orqali sun'iy intellektni joriy

etishdagi farqlar va o'xshashliklar aniqlab chiqildi.

Vaziyatli tahlil: Bank of America ilovasidagi "Erika" virtual yordamchisi va Danske Bank' ning firibgarlikni aniqlash tizimi amaliy misol sifatida ko'rib chiqildi.

Muhokama

Raqamli iqtisodiyotning taraqqiy etishi va amaldagi ifodasi sifatida 358-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi prezident qarori qabul qilinib, unda mamlakat oldida turgan maqsad va vazifalar aniq belgilab olindi. Xususan, belgilangan muddatgacha 1,5 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni aynan aqlli algoritmlar asosida ishlab chiqiladigan dastur va xizmatlarga yo'naltirish hamda sun'iy intellekt bilan ishlovchi o'nlab laboratoriyalar tashkil etish kabi maqsadli ko'rsatgichlar qatorida sun'iy intellektni takomillashtirishga mo'ljallangan qonunchilik tizimini yaratish maqsadi kiritilgan ("PIK-358-son 14.10.2024. Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида," n.d.).

Bugungi kunda Germaniya, Avtriya, Shvetsariya kabi bir qator Yevropaning rivojlangan davlatlarida aksariyat banklar va sug'urta kompaniyalari sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqmoqda. Ular raqamli samaradorlikni oshirish hamda umumiy xarajatlarni tejash maqsadida chatbotlar, avtomatlashtirish va bashoratli marketing kabi yangi bank sohalarida sun'iy intellektdan foydalanishmoqda. Bu kabi vazifalarni oldiga maqsad qilib qo'ygan ko'pgina moliya institutlari aqlli algoritmlar asosida bir qancha salmoqli loyihalar ishlab chiqmoqda.

Aynan chakana bank sohasiga yuzlanadigan bo'lsak, har kuni mijozlar turli o'tkazmalarni amalga oshirish, pul qabul qilib olish, valyuta ayirboshlash va shu bilan birga plastik kartalari bilan bog'liq bir qancha raqamli operatsiyalardan foydalanadilar. Bunday hisoblarni amalga oshirishda sun'iy intellekt sodir bo'layotgan firibgarliklarni aniqlash, xavflarni minimallashtirish kabi onlayn moliyaning umumiy xavfsizligini oshirishga yordam bermoqda. Firibgarlikni aniqlashda sun'iy intellektdan samarali foydalanayotgan banklardan biri bu Danske bankidir. Uning aqlli algortimga asoslangan firibgarlikni aniqlash tizimi kiberhujumlar pozitsiyasini 60% ga kamaytirib, firibgarlikni aniqlash qobiliyatini 50% ga oshirgan holda ba'zi operatsiyalarni bekor qilish yoki kechiktirish orqali ko'plab muhim qarorlarni amalga oshirishini alohida ta'kidlash mumkin.

Ish vaqti chegaralangan xodimlardan farqli o'laroq, 24/7 rejimda ishlovchi chatbotlar ham sun'iy intellektning chakana bank xizmatlari sohasida qo'llanilishiga misoldir. Chatbotlarni bank ilovalariga kiritib, birlashtirish orqali kun davomida, hatto, dam olish kunlarisiz mijozlarning so'rovlariga javob berish ularning talablari yanada samarali qondirilmoqda. Bundan tashqari, mijozlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga moslashtirilgan qo'llab-quvvatlashni taklif qilish va tegishli bank xizmatlari va mahsulotlarini tavsiya qilishi mumkin. Sun'iy intellektning eng yaxshi chatbotlaridan biri sifatida "Bank of Amerika" Amerika bankining ilovasi "Erika" ni olish mumkin. Ushbu virtual yordamchi 2019-yilni o'zidayoq 50 milliondan ortiq mijozlarning so'rovlariga javob qoldirganligi bilan ajralib turadi (Bharadwaj, 2025).

Sun'iy intellektni banklarda qo'llashda ko'proq ma'lumotlarni o'rganish, mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish orqali xavfsiz, har tomonlama samarador va ishonchli kredit qarorlarini qabul qilishga erishildi. Ko'plab banklar hozirgi kunda jismoniy yoki yuridik shaxslarning kreditga layoqatligini aniqlashda mijozlarning ma'lumotlaridan, kredit tarixidan, kredit ballaridan foydalanish bilan cheklanmoqda. Biroq kun sayin bunday axborot manbalari ham xato va kamchiliklarga, noto'g'ri ma'lumotlarga to'lib borayotganligi sababli, aqlli algortimga asoslangan kreditga

layoqatlilikni aniqlash tizimiga ehtiyoj oshmoqda. Sun'iy intellekt kredit so'rovlarini avtomatik baholab kredit berish yoki rad etish bo'yicha har xil omillarni birlashtirib aniqroq va ishonchli qarorlar chiqaradi. Ushbu tizim yordamida banklar kredit so'rovlarini tezda ko'rib chiqishi va ishlov berish jarayonini avtomatlashtirishi mumkin. Bu mijozlarga tezkor va samarali xizmat ko'rsatishdagi boshqaruvni samarali yo'lga qo'yishga imkon beradi.

Hozirda sun'iy intellektning O'zbekistonda ham bank sektorining boshqaruvida turli jabhalarda qo'llanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Kiberxavfsizlik va xavf-xatarlarni boshqarish, chatbotlar, mijozlar tajribasini o'rganishda, kredit va kredit risklarini nazorat qilishda banklar ushbu aqlli algortimdan foydalangan holda o'z mahsulatlari va xizmatlarini samaradorligini oshirishga erishmoqdalar.

Natijalar

Quyida O'zbekistonda sun'iy intellektning bank sohalarida qo'llanilishdagi afzalliklar va kamchiliklar haqida qisqacha tahlil natijasi keltirilgan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
Mijozlarga xizmat ko'rsatishda samaradorlik	Texnologiyaga kirish imkoniyatining cheklan-ganligi
Firibgarlik aniqlash va xavfsizlikni kuchaytirish	Yuqori dasturiy ta'minot xarajatlari
Shaxsiylashtirilgan xizmatlar	Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish
Qarorlar qabul qilishda tezlik	Inson omilining kamayishi
Qarorlar qabul qilishda aniqlik	Takomillashtirib turish ehtiyoji

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, chakana bank xizmatlaridan foydalanishda amaliyotda sun'iy intellektning qo'llanilishi kelgusida banklar faoliyatini samarali boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, sun'iy intellektning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari ham mavjud bo'lib, mamlakatlar sharoitida turlicha ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlarni bilan farqlanishini ko'rsatib turadi. Yaqin kelajakda banklarni boshqaruvida aynan raqamli iqtisodiyot bilan ishlovchi mutaxassislarining ko'plab yetishib chiqishi boshqaruvda anchagina soddalashtirishlar va xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Maqolaning asosiy ahamiyatli jihati shundaki, unda aqlli algortimlardan foydalanishning bugungi kundagi zaruriyati ilmiy asoslab berilgan.

Adabiyotlar

- Bharadwaj, 2025. How AI in Banking is Shaping the Industry [WWW Document]. URL <https://appinventiv.com/blog/ai-in-banking/> (accessed 3.19.25).
- PIK-358-son 14.10.2024. Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида [WWW Document], n.d. URL <https://lex.uz/en/docs/7158604> (accessed 3.19.25).
- Abdurashidova, Balbaa. «Artificial Intelligence in the Banking Sector in Uzbekistan: Exploring the Impacts and Opportunities», 2023 г. <https://dl.acm.org/doi/fullHtml/10.1145/3644713.3644721>.
- Damitu Ojog, 2014. The effect of crime on economic growth. Erasmus University Rotterdam.

5. Eleftherios, Athina, 2012. Economic Growth and Crime: Does uncertainty matter? The Rimini centre for economic analysis.
6. Laura Jaitman, 2014. The costs of crime and violence. Inter. America Development Bank.
7. Oladapo Zainab, 2014. Impact of economic and financial crime commission on the economic development in Nigeria. Turku University Applied Science.